



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Adolat hayot haqiqati sifatida"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 6-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Adolat va tenglik — asosiy qadriyatlar

Adolat — bu insonning hayotida asosiy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Adolatli jamiyatda har bir insonning huquq va manfaatlari hurmat qilinadi, hammaga **teng imkoniyatlar** beriladi.

Oilada

Barcha a'zolar ovqat va diqqat bilan teng ta'minlanishi kerak.

Sinfda

Har bir o'quvchi fikri uchun ehtirom ko'rsatilishi va mehnati e'tirof etilishi kerak.

Jamiyatda

Keng jamiyatda ham adolat muhim — ishonch, hamjihatlik va hamkorlik shakllanadi.



Tenglik tushunchasi

Tenglik — bu barcha shaxslarning huquq va erkinliklari qonun oldida bir xil tan olinishi va himoya qilinishi tamoyilidir.

❗ Tenglik "hamma bir xil natijaga ega bo'lishi kerak" degani **emas**, balki barcha uchun **teng sharoit** va **adolatli qoidalar** yaratilishi lozimligini anglatadi.

Agar ayrim shaxslarga shaxsiy munosabat, tanishlik yoki boshqa noqonuniy omillar asosida ustunlik berilsa, bu tenglik prinsipining buzilishi hisoblanadi.

Tenglik huquqiy davlatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u **adolat va ishonchning poydevorini** tashkil etadi.

Tenglik nima degani?

- Barcha insonlar bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishi
- Qarorlar qabul qilishda bir xil mezonlar qo'llanilishi
- Qonun oldida hamma barobar bo'lishi
- Shaxsiy aloqalar emas, obyektiv qoidalar asosida ish tutish

Amaliy misol: Olimpiada tanlovi

17-maktab, 6-"b" sinf

Vaziyat

Matematika fanidan shahar olimpiadasiga nomzodlar tanlanmoqda. O'qituvchi gulnora rahimova rasman barcha o'quvchilar ishtirok etishi mumkinligini aytdi.

Biroq u faqat **3 nafar o'quvchi** — Azizbek, Shohruh va Kamilani alohida tayyorlab, ularga qo'shimcha mashg'ulotlar o'tmoqda. Yaxshi o'qiydigan **dilnoza** esa bu imkoniyatdan chetda qolmoqda.

Tahlil



Rasmiy jihatdan tenglik saqlangandek ko'rinsa-da, amalda imkoniyatlar teng taqsimlanmagan!

O'qituvchining ayrim o'quvchilarga ustunlik berishi tenglik prinsipini buzadi. Bu holat o'quvchilarda adolatsizlik hissini uyg'otadi va **"tanlanganlar doimo ustun bo'ladi"** degan fikrni shakllantiradi.



Muhokama savollari: olimpiada misoli

1

Bu vaziyatda qaysi o'quvchilar haqiqatan imkoniyatdan foydalana olmoqda va qaysilari cheklanmoqda?

2

Rasman barchaga ishtirok imkoniyati berilgan bo'lsa-da, amalda nima uchun tenglik buzildi deb hisoblash mumkin?

3

O'qituvchining ayrim o'quvchilarni alohida tayyorlashi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

4

Bu holat dilnoza kabi o'quvchilarning motivatsiyasiga qanday ta'sir qiladi?

Agar bu amaliyot davom etsa, sinfda qanday fikr shakllanadi?

Bu holatni korrupsiyaviy fikrlashga o'xshatish mumkinmi, nima uchun?

Teng imkoniyatni ta'minlash uchun qanday adolatli mexanizm joriy qilish mumkin?

Teng va adolatli munosabat



Teng va adolatli munosabat — bu shaxslarga nisbatan qarorlar qabul qilishda ularning shaxsiy xususiyatlari yoki aloqalariga emas, balki **umumiy qoidalar va obyektiv mezonlarga** tayanishni anglatadi.

Amaliy misol: Adolatsiz baholash

6-"A" SINF | ONA TILI DARSİ

Vaziyat

6-"A" sinfda ona tili fanidan insho yozildi. O'qituvchi Nodira Hasanova o'z mahallasida yashaydigan o'quvchi **Jasurning** ishiga — xatolar mavjud bo'lsa ham — **5 baho** qo'ydi. Boshqa o'quvchi **Mehribon** esa deyarli xatosiz ish yozgan bo'lsa-da, atigi **4 baho** oldi.

Tahlil

⊗ Baholash jarayonida subyektivlik va shaxsiy munosabat ustun bo'lgan — bu Mehribonning huquqini buzadi!

Bunday holatlar keyinchalik **tanish-bilish orqali imtiyoz olish** kabi korrupsiyaviy fikrlashni shakllantirishi mumkin. Butun sinfda baholash tizimiga ishonch pasayadi.

Jasur

Xatolar mavjud → 5 baho
(shaxsiy tanishlik sabab)

Mehribon

Deyarli xatosiz → 4 baho
(adolatsiz baholash)

Natija

Sinfda ishonch pasayadi,
korrupsiyaviy fikr shakllanadi

Muhokama savollari: Baholash misoli

→ Obyektivlikdan chetga chiqish

Bu vaziyatda baholash qaysi jihatdan obyektivlikdan chetga chiqqan? Jasur va Mehribonning ishlarini solishtirganda qaysi mezonlar inobatga olinishi kerak edi?

→ Korrupsiyaviy fikrlash xavfi

Agar baholash adolatsiz bo'lsa, o'quvchilar qanday yo'lni tanlashga moyil bo'lishi mumkin? Bu holat qanday qilib "tanish orqali natijaga erishish" fikrini shakllantiradi?

→ Shaxsiy munosabat ta'siri

Nega shaxsiy munosabat bahoga ta'sir qilmasligi kerak? Bu holat sinfdagi boshqa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qiladi?

→ Adolatli tizim yaratish

Adolatli baholash tizimini qanday tashkil qilish mumkin? Qanday qoidalar va mezonlar joriy etish kerak?

Adolat bilan taqsimlash

Adolat bilan taqsimlash — bu resurslar, imkoniyatlar, vazifalar yoki mukofotlarni barcha ishtirokchilarga **obyektiv** va **asoslangan mezonlar** asosida taqsimlash jarayonidir.

Tenglik — barchaga bir xil taqsimlash.

Adolat — har bir shaxsning ehtiyojlari, mehnati va sharoitlarini inobatga olgan holda taqsimlash.

Shaffoflik muhim!

Agar taqsimlash jarayonida shaffoflik va xolislik ta'minlanmasa, shaxsiy manfaatlar ustun qo'yilishi mumkin. Bu esa:

- Resurslardan noqonuniy foydalanish
- Intiyozi berish
- Boshqalarning huquqlarini cheklash



Amaliy misol: Noutbuklar taqsimoti

12-maktabga **10 ta yangi noutbuk** keltirildi.

Maktab direktori Sherzod Karimov ularni sinflar o'rtasida taqsimlashi kerak edi.

⊗ Bu holatda resurslar adolatli taqsimlanmagan. Subyektiv qaror qabul qilinishi boshqa sinf o'quvchilarining imkoniyatlarini cheklaydi va korrupsiyaviy qaror qabul qilishga o'xshaydi.

1

Bu taqsimotni adolatli deb hisoblash mumkinmi?
Qanday obyektiv mezonlar asosida taqsimlash kerak edi?

2

Nega barcha sinflarning ehtiyojini hisobga olish muhim? Bu qaror boshqa sinf o'quvchilariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

3

Rahbar shaxslar resurslarni shaxsiy manfaat asosida taqsimlasa, bu qanday xavfli holatlarga olib kelishi mumkin?

4

Adolatli va shaffof taqsimlash uchun qanday qoidalar joriy etish kerak?



Xulosa: adolat — hayotning asosiy haqiqati

Adolat hayotning asosiy haqiqatidir. Tenglik va adolatli munosabat insonlarning ishonchini mustahkamlaydi, hamjihatlik va hamkorlikni rivojlantiradi.

Kichikdan boshlash

Bolalar kichik yoshidanoq adolat va tenglikni hayotida qo'llashni o'rganishi kerak.

Ishonch va hamjihatlik

Bu qadriyatlar odamlar o'rtasida ishonch, hamjihatlik va hamkorlikni shakllantiradi.

Korrupsiyasiz jamiyat

Kelajakda mas'uliyatli, halol va korrupsiyasiz jamiyatni barpo etishga hissa qo'shiladi.



Adolat va tenglik tushunchasini tushuntirish orqali bolalar kelajakda korrupsiya va adolatsizlikka qarshi turishni ham o'rganadilar!